



THE IMPORTANCE OF SOCIO-POLITICAL COOPERATION IN DEVELOPING IDEOLOGICAL REFORMS IN THE REGION

Khumoyiddin Yoqubov

Doctoral student, researcher

Uzbekistan State World Languages University

E-mail: humoyiddin9597@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: ideological reforms, socio-political cooperation, national values, ideological paradigm, public sphere, social capital, regional integration, international cooperation, stability.

Received: 19.10.25

Accepted: 20.10.25

Published: 21.10.25

Abstract: This article analyzes the multi-layered nature of socio-political cooperation in the process of developing ideological reforms in the region. The role of national values, historical memory, and civilizational heritage in the ideological paradigm is revealed as a conceptual foundation, and they are interpreted as internal sources of ideological stability in society. Furthermore, the influence of international cooperation on ideological processes is explained through Habermas's concept of the "public sphere," while the strategic functions of regional integration are elucidated through Putnam's theory of "social capital."

MINTAQADA MAFKURAVIY ISLOHOTLARNI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOYIY-SIYOSIY HAMKORLIKNING AHAMIYATI

Humoyiddin Yoqubov

Tayanch doktoranti

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti

humoyiddin9597@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: mafkuraviy islohotlar, ijtimoiy-siyosiy hamkorlik, milliy qadriyatlar, mafkuraviy paradigma, jamoat maydoni, ijtimoiy kapital, mintaqaviy integratsiya, xalqaro hamkorlik, barqarorlik.

Annotatsiya: Maqolada mintaqada mafkuraviy islohotlarni rivojlantirish jarayonida ijtimoiy-siyosiy hamkorlikning ko'p qatlamli mohiyati tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va sivilizatsion merosning mafkuraviy paradigmadagi roli

konseptual asos sifatida ochib berilib, ular jamiyatda mafkuraviy barqarorlikning ichki manbai sifatida talqin etiladi. Shuningdek, xalqaro hamkorlikning mafkuraviy jarayonlarga ta'siri Habermasning "jamoat maydoni" konsepsiyasi orqali, mintaqaviy integratsiyaning strategik funksiyalari esa Putnamning "ijtimoiy kapital" nazariyasi orqali izohlanadi.

ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В РАЗВИТИИ ИДЕОЛОГИЧЕСКИХ РЕФОРМ В РЕГИОНЕ

Хумойиддин Якубов

Докторант

Узбекский государственный университет мировых языков

E-mail: humoyiddin9597@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: идеологические реформы, общественно-политическое сотрудничество, национальные ценности, идеологическая парадигма, публичная сфера, социальный капитал, региональная интеграция, международное сотрудничество, стабильность.

Аннотация: В данной статье анализируется многоуровневый характер общественно-политического сотрудничества в процессе развития идеологических реформ в регионе. Роль национальных ценностей, исторической памяти и цивилизационного наследия в идеологической парадигме раскрывается как концептуальная основа, и они интерпретируются как внутренние источники идеологической стабильности в обществе. Кроме того, влияние международного сотрудничества на идеологические процессы объясняется через концепцию Хабермаса о "публичной сфере," в то время как стратегические функции региональной интеграции освещаются через теорию Патнэма о "социальном капитале."

Kirish. Mintaqada mafkuraviy islohotlarni rivojlantirish masalasi bugungi globallashuv jarayonida dolzarb ilmiy va amaliy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki mafkuraviy yangilanish nafaqat milliy o'zlikni saqlash, balki siyosiy barqarorlik, ijtimoiy taraqqiyot va madaniy uyg'unlikni ta'minlashda ham hal qiluvchi omil sifatida maydonga chiqmoqda. Shu bois, ijtimoiy-siyosiy hamkorlikning turli shakllari mafkuraviy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda asosiy determinantlardan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Mafkuraviy islohotlar tushunchasi jamiyatning ideologik asoslarini zamon talablari bilan uyg'unlashtirish, ijtimoiy ongni modernizatsiya qilish va siyosiy muhitda barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan tizimli jarayonni ifodalaydi. Bu jarayon, avvalo, ijtimoiy-siyosiy hamkorlik darajasi bilan belgilanadi. Tarixiy tajribalar ko'rsatadiki, mafkuraviy yangilanishlar davlatning tashabbusi bilan boshlanadi, biroq ularning muvaffaqiyati keng jamoatchilik ishtirokisiz barqaror natija bera olmaydi.

Ijtimoiy-siyosiy hamkorlikni tadqiq etishda uch jihat ajralib turadi. Birinchidan, davlat institutlari va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlar. Qonunchilik bazasi, jamoatchilik nazorati va siyosiy mexanizmlar ochiqdigi islohotlarning legitimligini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, axborot kommunikatsiya vositalarining roli. OAV va yangi media orqali islohotlarning maqsadi, mazmuni va kutilayotgan natijalar yoritiladi, shu orqali ijtimoiy ong shakllanadi.

Uchinchidan, ijtimoiy guruhlarining ishtiroki. Xususan, yoshlar, ta'lim muassasalari va diniy jamoalar bilan muloqot mafkuraviy jarayonlarning barqarorligini ta'minlaydi.

Fakt sifatida, zamonaviy tadqiqotlarda mafkuraviy o'zgarishlarning qabul qilinishi siyosiy tizimga bo'lgan ishonch bilan bevosita bog'liq ekani qayd etilgan. Fikr sifatida, hamkorlikni kuchaytiruvchi mexanizmlar jamiyatda nizolarning oldini olishga, qarama-qarshi mafkuralarning ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladi. Foyda jihatidan, mafkuraviy islohotlar davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchni oshirib, mintaqaviy xavfsizlikka ham hissa qo'shadi.

Mazkur omillarni hisobga olgan holda, tadqiqotning dolzarbligi ijtimoiy-siyosiy hamkorlikning mafkuraviy islohotlar muvaffaqiyatini belgilovchi determinant sifatida namoyon bo'lishida ko'rinadi. Shu bois ushbu maqolada mazkur jarayon nazariy manbalar, amaliy tajribalar va mintaqaviy xususiyatlar asosida ilmiy tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi. Mavzu bo'yicha adabiyotlarda mafkuraviy islohotlar va ijtimoiy-siyosiy hamkorlik mavzusi xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan turli burchaklardan o'rganilgan. A. Romano "Political ideology, cooperation and national parochialism" maqolasida siyosiy mafkura va hamkorlik o'rtasidagi bog'liqlik aniqlangan; liberal ideologiyadagi guruhlar boshqalarga nisbatan ko'proq ishonch va hamkorlik ko'rsatishi ularning jamiyat ichidagi roli va qadriyatlarining qabul qilinishini sezilarli darajada oshiradi. Bu natija mahalliy kontekstlarda davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchli munosabatlarning zarurligini ko'rsatadi.

Maggetti "Partisan ideology, changes of government, and policy integration reforms" maqolasida siyosiy partiyalar va hukumat o'zgarishlarining siyosiy integratsiya siyosatiga ta'siri tahlil etiladi. U yerda siyosiy muloqot ochiqdigi va partiyalarning islohotlarga yondashuvi hamjamiyat qabuliga bevosita ta'sir qilishi qayd etilgan. Bu adabiyotlar islohot siyosatini

belgilovchi institutlararo va siyosiy guruhlararo hamkorlik shakllarining samaradorligi tarafida ishonchli dalil beradi.

Qolaversa, yoshlarga oid davlat siyosati va yoshlar tashkilotlari faoliyati bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda yoshlarning siyosiy madaniyati, ma'naviy qadriyatlar va ijtimoiy faollikning oshishi davlat va jamiyat hamkorligining natijali shakllari sifatida ko'rib chiqilgan. Bu adabiyotlardan yoshlar va ta'lim muassasalarining roli alohida ajralib turadi, ular mafkuriy yangilanishlarning jamiyatga tarqalishida vositachi bo'lishadi.

Nazariy jihatdan, "Theories of Ideology: Origins, Development, and Prospects" kabi maqolalarda mafkurani funksional va sababli konsepsiyalar orqali tahlil qilish, ideologiyalarning jamiyatdagi rolini aniqlash zarurligi ko'rsatilar ekan, ularning demokratiya, jamiyatning barqarorligi va hamkorlik formula-mexanizmlarini taklif etadi. Shuningdek, "Political Ideology, Trust, and Cooperation" tashqi mamlakatlar amaliyoti misolida ishonch va hamkorlik siyosiy mafkuraga qanday ta'sir qilayotgani ko'rib chiqiladi, bu ish mahalliy kontekstlarga mos keladigan hamkorlik va legitimitet masalalarini tahlil qilishda foydali bo'lishi mumkin.

Natijalar va muhokamalar. Milliy mafkura masalalarini tizimli tahlil qilish jarayonida birinchi navbatda g'oyaviy asoslarning tarixiy-madaniy qatlamlari bilan bevosita aloqadorligi ochib berildi. Mustaqillikdan so'ng shakllangan mafkuraviy paradigma faqat siyosiy deklaratsiya emas, balki tarixiy xotira, milliy qadriyatlar va sivilizatsion meros bilan bog'liq holda yangi konseptual asosga ega bo'ldi. Mazkur jarayon mafkuraviy islohotlarning barqarorligini ta'minlashda ijtimoiy ong va milliy identitet omillarini markaziy o'ringa olib chiqdi.

1-jadval

Mafkuraviy islohotlarning ko'p darajali tahlili jadvali

Daraja	Asosiy mazmuni	Ilmiy konseptual izoh	Amaliy natijalar
Tarixiy-madaniy asoslar	Milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va sivilizatsion merosga tayanib, mafkuraviy paradigmaning shakllanishi.	Mafkura tarixiy jarayonlarning mahsuli sifatida milliy identitetni shakllantiradi (sivilizatsion yondashuv).	Jamiyatda psixologik immunitet va ijtimoiy birlik shakllanadi.
Xalqaro hamkorlik	AQSh, YI, Turkiya, Koreya va Yaponiya bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlik orqali yangilanish kayfiyatini kuchaytirish.	Habermasning "jamoat maydoni" nazariyasiga ko'ra, ochiqlik va muloqot ijtimoiy ongni transformatsiya qiladi.	Modernizatsion jarayonlar tezlashadi, xalqaro legitimlik kuchayadi.
Mintaqaviy integratsiya	Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik, suv-energetika resurslari, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni	Putnamning "ijtimoiy kapital" nazariyasiga asoslanib, mintaqaviy ishonch tarmoqlari mafkuraviy barqarorlikni	Mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlik ta'minlanadi.

	ta'minlash.	mustahkamlaydi.	
--	-------------	-----------------	--

Ta'qdim etilgan jadval mafkuraviy islohotlarning uch darajali tuzilishini ko'rsatadi. Birinchi daraja – tarixiy-madaniy asoslar – milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va sivilizatsion merosning mafkuraviy paradigma shakllanishidagi hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi. Bu daraja jamiyatda mafkuraviy barqarorlikning ichki manbasini ifodalaydi va milliy identitetni mustahkamlash orqali ijtimoiy birlikni ta'minlaydi.

Ikkinchi daraja – xalqaro hamkorlik – mafkuraviy jarayonlarning tashqi siyosat bilan uzviy bog'liqligini ochib beradi. Habermasning jamoat maydoni konsepsiyasiga tayanib, ochiqlik va xalqaro muloqotning kengayishi ijtimoiy ongning transformatsiyasiga xizmat qilishi ko'rsatilgan. Demakki, xalqaro integratsiya mafkuraviy yangilanishni tezlashtiribgina qolmay, uning global maydondagi legitimligini ham oshiradi.

Uchinchi daraja – mintaqaviy integratsiya – mafkuraviy islohotlarning amaliy ko'rinishlarini belgilovchi soha sifatida ko'riladi. Bu jarayon Putnamning ijtimoiy kapital nazariyasi orqali izohlanadi: davlatlararo ishonch tarmoqlarining mustahkamlanishi mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni kafolatlaydi. Shu sababli mafkuraviy jarayonlarning muvaffaqiyati ko'pincha qo'shni davlatlar bilan hamkorlik mexanizmlariga bog'liqdir.

Jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida bunyodkor g'oyalar — ozodlik, adolat, taraqqiyot — universal tamoyil sifatida qaror topib, ularning har biri ijtimoiy-siyosiy tizimni yangilashga xizmat qilgani kuzatiladi. Bunday g'oyalar mafkuraviy jarayonlarni barqarorlashtirishning ichki mexanizmlari bo'lib, jamiyatning psixologik immunitetini shakllantiruvchi omil vazifasini bajargan. Shu sababli mafkuraning samaradorligi, avvalo, konstruktiv g'oyalarning ijtimoiy ongga singishi darajasi bilan belgilanadi.

Davlatning tashqi siyosati ham mafkuraviy jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani kuzatilmoqda. AQSh, Yevropa Ittifoqi, Turkiya, Koreya va Yaponiya bilan hamkorlik siyosiy va iqtisodiy modernizatsiyaning tashqi omili sifatida milliy mafkurada yangilanish ruhini kuchaytirdi. J. Habermasning “jamoat maydoni” konsepsiyasi orqali ham izohlash mumkin: ochiqlik va xalqaro muloqot mexanizmlarining kengayishi ijtimoiy ongni demokratik ruhda transformatsiya qiladi. Demak, mafkuraviy islohotlarning barqarorligi faqat ichki ideologik birlik emas, balki tashqi aloqalar orqali shakllanadigan normativ asoslar bilan ham belgilanadi.

Mintaqaviy siyosat darajasida ham mafkuraviy islohotlarning institutsional asoslari ko'rinadi. Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik, suv-energetika resurslari va ekologik xavfsizlik kabi masalalarda birgalikda harakat qilish mafkuraviy jarayonlarni amaliy hamkorlik shakliga keltirmoqda.

Putnamning “ijtimoiy kapital” nazariyasi nuqtai nazaridan qaralganda, bunday hamkorlik mintaqaviy ishonch tarmog'ini mustahkamlaydi va mafkuraviy barqarorlikning tashqi omillarini

kafolatlaydi. Har uchala daraja uyg'unlashganda mafkuraviy islohotlar nafaqat huquqiy hujjatlar darajasida, balki ijtimoiy ong va siyosiy amaliyot darajasida ham mustahkamlanadi. Muhokama jarayonida aniq bo'ladiki, mafkuraning kuchi uning normativ deklaratsiyalarida emas, balki jamiyatning ko'p qatlamli ijtimoiy-siyosiy tizimida qanday ishlashida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, mafkuraviy islohotlarni rivojlantirish masalasi faqat ideologik konsepsiya darajasida emas, balki ijtimoiy, siyosiy va mintaqaviy amaliyotlar majmuida ko'rib chiqilishi lozim. "Mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili" asaridan olingan natijalar, xalqaro nazariyalar va qo'shimcha adabiyotlar asosida quyidagi umumiy xulosalar chiqarish mumkin:

1. Tarixiy-madaniy asoslar mafkuraviy barqarorlikning ichki manbai bo'lib, milliy qadriyatlar va sivilizatsion merosga tayangan holda jamiyatning psixologik immunitetini shakllantiradi.
2. Xalqaro hamkorlik mafkuraviy jarayonlarning tashqi mezoni sifatida davlatning modernizatsion islohotlarini qo'llab-quvvatlaydi, jamiyatda ochiqlik va yangilanish ruhini kuchaytiradi.
3. Mintaqaviy integratsiya esa mafkuraviy barqarorlikning strategik kafolatini ta'minlab, qo'shni davlatlar bilan ishonchli hamkorlik asosida xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil.
2. Bobir Namozov "MILLIY G'OYA TARG'IBOT TEXNOLOGIYALARI o'quv qo'llanma "Durdona" nashriyoti Buxoro – 2022 5-b
3. Haydarov. Inson kamoloti va milliy qadriyatlar.- Toshkent: Muharrir, 2008.-B.93.
4. Zairov A. Yangilanayotgan O'zbekistonda jamiyat islohotlar tashabbuskori // Общество и инновации. – 2021. – №4.
5. Romano, A. Political ideology, cooperation and national parochialism // Proceedings of the National Academy of Sciences. – 2021. – Vol. 118 (7).
6. Maggetti, M. Partisan ideology, changes of government, and policy integration reforms // Policy and Society. – 2021. – Vol. 40, No. 1. – P. 79–95. – DOI: 10.1080/14494035.2021.1908673.
7. Yoshlar siyosati va mafkuraviy jarayonlarda yoshlar tashkilotlarining ishtiroki: ilmiy-tahliliy materiallar to'plami. – 2019.

8. Rosen, M. Theories of ideology: origins, development, and prospects // Social Philosophy and Policy. – 1996. – Vol. 15, No. 1. – P. 1–74.

9. Brandt, M. J., Wetherell, G., & Henry, P. J. Political Ideology, Trust, and Cooperation. – Vrije Universiteit Amsterdam, 2015.